

## Atmosfera havosi ifloslanishiga sabablar va oqibatlari

Andijon davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti  
Biologiya yo`nalishi Tursunova Zebiniso Bahromjon qizi va  
Naimsherova Sevinch Sherzodbek qizi.

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada atmosfera ifloslanishiga asosiy sabab bo`layotgan jiddiy holatlar, keltirib chiqarayotgan xavfli oqibatlari, tabiatga va insonga zararlari, bundan tashqari keltirib chiqaradigan kasalliklari bir qanchasi keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Atmosfera, ifloslanish, havo, sanoat, avtotransport, kislorod, smog, kislotali yomg`ir, global, metallurgiya, sovitish, CFC, antropogen, ozon.

**Abstract:** In this article, the main causes of atmospheric pollution are serious conditions, dangerous consequences, damage to nature and people, and several diseases caused by it.

**Key words:** Atmosphere, pollution, air, industry, motor transport, oxygen, smog, acid rain, global, metallurgy, cooling, CFC, anthropogenic, ozone.

Atmosfera havosi ko`rinmas va elementlarga to`liq bo`lib, atrof muhitning abiotik omili sifatida ahamiyatga ega. Atmosfera sayyoramizning gazsimon qobig`i hisoblanib. Yer yuzasi har hil gazlar aralashmasi va suv bug`lari, changlardan tashkil topgan. Havo o`z ichiga quyidagi elementlarni oladi. (1-jadval)

1-jadval.

	gazlar	Foiz ko`rsatkich
1	Azot	78%
2	Kislorod	21%
3	Argon	0,94%
4	Karbonat angidrid	0,03%
5	Mikrogazlar	0,00...

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Atmosfera ifloslanishi deb, bir soʻz bilan aytganda ,havo tarkibiga begona moddalar va qoʻshinchalarning meʼyoridan ortiq toʻplanishiga aytiladi. Havoning ifloslanishi tabiiy yoki sunʼiy (antropogen) boʻlishi mumkin.

Tabiiy ifloslanish. Atmosferada doimo maʼlum miqdorda changlar boʻladi. U tabiatda sodir boʻladigan tabiiy hodisalalar natijasida hosil boʻladi. Bunday changlarni 3 turga: yaʼni, mineral(noorganik), organik va koinot changlariga ajratish mumkin.

Antropogen ifloslanish. Asosan transport vositalarida ,sanoat korxonalarida va energiya ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda organik yonilgʻilardan foydalanish natijasida hosil boʻladigan chiqindilar va ajratmalarning havo havzasiga tushishi oqibatida sodir boʻladi.

Transport vositalari va sanoat korxonalari sonining yildan-yilga koʻpayib borishi, turli yonilgʻilardan foydalanish, shuningdek, oʻrmonlarning kamayishi, okean suvlarining neft mahsulotlari bilan ifloslanishi, yadro qurollarining portlatishi natijasida atmosferadagi kislorod miqdori keskin kamayib, karbonat angidridi va azot oksidlari miqdorining oshishi kuzatilmoqda.

Agar havo tarkibida karbonat angidrid miqdori oshib boraversa, uning ifloslanishining oldi olinmasa, yana 50 yildan soʻng yer yuzasi harorati oʻrtacha 1,5-3,0 gradusga oshishi mumkin . Natijada muzliklarning erishi ,okean suvlari sathining koʻtarilishi, quruqlikning bir qismi suv bosishi, geografik muhitning oʻzgarishi sodir boʻladi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar.

AVTOTRANSPORT. Rasmiy maʼlumotlarga qaraganda, atmosferaga dunyo boʻyicha 50 million tonna har hil uglevodorodlar, 260 million tonna oltingugurt oksidlari , 50-60 million tonna azot oksidlari , 2 million tonnadan ortiqroq chang va kulsimon moddalar tashlanmoqda. Atmosfera havosining kundan-kunga, yildan-yilga bunchalik ifloslanib borishida avtotransportlarning “aybi” borligi yaqqol koʻrinib turibdi. Hozirgi kunda dunyo boʻyicha 500 milliondan ortiqroq avtomobil mavjud boʻlib, ular yiliga 3 milliard tonnadan ortiq uglevodorod yoqilgʻisini sarflamoqda.

Maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, AQSH va Yaponiyada atmosferani ifloslantiruvchi manbalar ichida avtotransport vositalari oldingi oʻrinda turadi. Xorijiy mamlakatlar atmosferasini ifloslantiruvchi manbalar ichida is gaz, uglevodorodlar va azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60-70% ini tashkil qilsa, respublikamizda bu koʻrsatkich 35% ni, ayrim shaharlarda (Andijon, Buxoro, Samarqand, Toshkent) esa 80 % ni tashkil qiladi.

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 6. June 2024

Keyingi yillarda olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, rak kasalligi kelib chiqishida avtomobilda yonilg'ining chala yonishi natijasida ajralib chiqadigan aromatik uglevodorodlar ham rol o'ynashi ma'lum bo'ldi.

Sanoat tashlanmalarining kimyoviy tarkibi yonilg'i turiga (qattiq, suyuq, gazsimon) va uni yondirish usullariga ko'ra turlicha bo'ladi. Ko'mir, neft, gaz yonilg'ilari yonganda turli sabablarga ko'ra to'la yonmaydi. Shuning uchun sanoat korxonalaridan atmosferaga katta miqdorda chala yongan zarrachalar, uglevodorodlar, oltingugurt birikmalari, oltingugurt( II) oksidi, azot oksidlari chiqadi.

Qora va rangli metallurgiya korxonalarida chang, oltingugurt gazi, uglerod va azot oksidlarini havoga chiqaradi. Alyuminiy sanoati esa atmosfera havosini ftor bilan ifloslantiruvchi manba hisoblanadi.

Amerika olimlari ma'lumotlariga ko'ra, sement zavodlarida bir tonna sement mahsulotini ishlab chiqarish mobaynida taxminan 100 kg sement changi havoga chiqariladi. Sement zavodlari joylashgan hududlar havosining ifloslanishi korxonalar atrofidagi 1000 metrgacha bo'lgan mintaqaning tuproq va o'simliklar qoplaminin kuchli darajada ishdan chiqishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan 2600 dan ortiq korxonlardan yiliga 164 ming tonna 150 turdagi ifloslantiruvchi moddalar havoga chiqarib yuborilmoqda. (2007-yilga nisbatan)

Atmosferaning ifloslanishi havoga nihoyatda ko'p miqdorda chiqayotgan chang-to'zon, tutun, mikroblar, uglerod oksidi, vodorod sulfidi, uglevodorodlar, organik moddalar, sulfidlar, nitratlar, qo'rg'oshin, temir, ftor birikmalari, radioaktiv moddalar va pestitsidlar bilan bog'liq.

Atmosfera havosi ifloslanishi qanday oqibatlariga olib keladi:

Fotokimyoviy smog. "SMOG" so'zi birinchi marta 1905-yilda ishlatilgan bo'lib, uni ingliz tilidan tarjimasini tutun ma'nosini beradi. Sanoat korxonalarida va transport vositalaridan ajralib chiqayotgan gazlar tufayli havoning og'irlashib, sarg'ayib tuman hosil bo'lishi kuzatiladi. Smog hosil bo'lganda havoda juda yomon qo'lansa hid paydo bo'ladi. Bunday hodisa birinchi marta Londonda kuzatilgan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, London smogining hosil bo'lishida SO<sub>2</sub> gazi asosiy rol o'ynaydi.

Kislotali yog'inlar. Atmosferani oltingugurt va azot gazlari bilan ifloslanishi bilan bog'liq holda yog'inlarni kislotaga aylanishi namoyon bo'ladi. Bunday hodisa, odatda atmosferaga oltingugurt va azot gazlari chiqaradigan yirik sanoat korxonalarida osmonida

sodir bo`ladi va bulutlar yordamida harakatlanib, boshqa hududlarga ham yog`ishi mumkin.

Global isish. Dovullar sonining oshishi mumkin. Muz qutblarining erishi boshlandi, bular dengiz suv sathining ko`taradi va qirg`oqbo`yi hududlarini suvga g`arq qiladi. Ob-havoning isishi tropik kasalliklarni keltirib chiqarmoqda, misol uchun bezgak kasalligi ko`p tarqalishi kuzatilmoqda.

Ozon qatlamining yemirilishi. Har yili bahor faslida ozon qatlamining vaqti-vaqti bilan yupqalashib borishi kuzatilmoqda. Ozon qatlamining yupqalashib borishi ozon qatlamining yemirilishi, deyiladi. Ifloslangan gazlar bu muammoning asosiy sababi bo`lib, ozon qoplami uchun eng havfli gaz CFC (xlor-ftor-uglerod) dir, u sovitish tizimida ishlatiladi. Ozon qatlami hayotni ta`minlash uchun juda muhim sanaladi, shu sabab butun dunyo davlatlari sanoatida CFC ni ishlatishni to`xtatish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ekologiya va atrof -muhitni muhofaza qilish asoslari (P.Sultonov) "MUSIQA" nashriyoti Toshkent 2007
2. Ijtimoiy ekologiya (S.M.Turabjanov, M.M.Aripov, L.S.Raximov) "BOOK TRADE 2022" Toshkent 2022
3. Ekologiya va atrof -muhitni muhofaza qilish asoslari (P.S.Sultonov, B.P.Ahmedov) G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2004
4. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish (O`.E.Xo`janazarov, Sh.Yakubjonov) "INNOVATSIYA-ZIYO" Toshkent 2018

**Research Science and  
Innovation House**